

**BAHORGİ BUG'DOYNI O'G'ITLASHDA MINERAL VA MIKROELEMENTLI
O'G'ITLARNING 1000 DON VAZNIGA TA'SIRI**

Atamuratov R.T

Adilov S.J

Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti

Annotatsiya: *Qoraqalpog'iston sharoitida Bahorgi bug'doyning hosildorligini oshirish singari don sifatini oshirish muammosi ham muhim ahamiyatga ega. Bahorgi bug'doy sifat ko'rsatkichlari navning biologik xususiyatlariga, tuproq-iqlim sharoitiga, qo'llanilgan agrotexnikaga va o'g'itlar meyorlariga bog'liq holda o'zgaradi bunda bug'doyning hosildorligini ko'rsatuvchi bug'doyning 1000 dona vazni muhim ahamiyatga ega.*

Kalit so'zlar: *Bohorgi bug'doy, O'g'itlar meyorlari, Hosildorlik, 1000 dona vazni,*

KIRISH

Bug'doydan sifatli va mul xosil olishga erishishda agrotexnik tadbirlarni uz vaqtida amalga oshirilish, o'g'itlash, Sug'orish, begona o'tlarga va kasallik hamda zararkunandalarga qarshi kurash tadbirlarini tizimli ravishda O'tkazish muxim vazifalardan biri hisoplanadi.

Sungi yillarda bug'doyni barg orqali oziqlantirish muxim agrotexnik tadbir sifatida amalga oshirilmoqda. Bunda tayyor oziqa (suspensiya eritmasi) to'g'ri o'simlikning barg og'izchalariga tushadi va uni o'simlik tezda o'zlashtiradi suspensiya chaklda purkash bug'doy ekinlarini qoshimcha oziqlantirish bilan birga qurgoqchilikka va kasalliklarga shidamliligini o'shiradi.

Bahorgi bug'doy hosildorligini o'shirishga qaratilgan barcha agrotexnik tadbirlar, yirik donni shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Donni yirikligi sifat ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi va u 1000 ta don massasi bilan ifodalanadi. Shuningdek 1000 ta don massasi hosil strukturasini ham tarkibiy elementlaridan biridir.

Ma'lumotlarda qayd etilganidek bug'doy doni sifatini belgilovchi texnologik ko'rsatgich hisoblangan 1000 don vazni qo'llanilgan mineral o'g'itlar meyorlari va nisbatlariga bog'liq ravishda o'zgarib borishligi kuzatildi. 3,0x20 mm fraksiya donlarining 1000 donasini vazni qo'llanilgan mineral o'g'itlar meyorlari va nisbatlariga bog'liq ravishda 30 grammdan 38 gramm/gachani tashkil etgani holda 2,5x20mm fraksiya donlari 1000 donasi vazni 26-34 grammni, 2,0x20 mm fraksiya donlari vazni esa 20-25 grammni tashkil etishi aniqlandi.

Barcha holatlarda ham mineral o'g'itlar meyorlari va nisbatlari tavsiya etilgandagiga nisbatan qo'llanilganda yuqori bo'lib, 3,0x20 mm fraksiyalarda 38 g tashkil etgani holda o'g'it qo'llanilmagan nazorat varianti va boshqa tajriba variantlarida 30-37 g tashkil etdi.

1-jadval

Janub gavhari bug'doy naviga o'g'itlar meyorlari va nisbatlarining bug'doyning 1000 don vazniga ta'siri.

№	Tajriba variantlari	Elaklar teshiklari kattaliklari bo'yicha 1000 don vazni fraksion tarkibi,gr		
		3,0x20 mm	2,5x20 mm	2,0 x 20 mm
1	O'g'itsiz (st)	30	26	20
2	N ₁₆₀ P ₁₀₅ K ₄₀ Suvga	33	28	22
3	N ₁₆₀ P ₁₀₅ K ₄₀ Bentanit	38	34	25
4	N ₁₆₀ P ₁₀₅ K ₄₀ Labirent Combi	34	29	23
5	N ₁₆₀ P ₁₀₅ K ₄₀ Ento Micro	38	34	25
6	N ₁₆₀ P ₁₀₅ K ₄₀ IFO Aminocal	37	33	23

1000 don vazni mineral o'g'itlar meyorlari va nisbatlari qo'llanilganda 2,5x20 mm fraksiya 1000 don og'irligi 34 g tashkil etgani holda qo'llanilgan mineral o'g'itlar meyorlari, nisbatlari va turlariga mutanosib holda farqlanishning sezilarli darajada bo'lishligini ko'rsatdi.

Chunki, o'g'it qo'llanilmagan nazorat variantida yetishtirilgan 1000 don vazni 30 g tashkil etgani holda ushbu ko'rsatgich mineral o'g'itlar meyorlari va nisbatlari qo'llanilganda 6 g yuqori bo'lib ushbu farq mineral o'g'itlar meyorlari va nisbatlari tavsiya etilgan meyorlarda qo'llanilganda 6 g kamroq bo'lishligi kuzatildi.

Biroq, mineral o'g'itlarning u yoki bu turi qo'llanilmaganda 1000 dona don vazni pasayib mineral o'g'itlar qo'llanilmagan nazorat varianti ko'rsatgichiga yaqinlashishi ma'lum bo'ldi.

1000 don vazni keskin pasayib ketgan bo'lsada 2,0x20 mm fraksiya donlarining mineral o'g'itlar meyorlari va nisbatlari qo'llanilgan tajriba variantida bir muncha

yuqori bo'lib 27 g, tavsiya etilgan meyorlarda qo'llanilganda 7 g yuqori bo'lishligi kuzatildi.

XULOSA

Janub gavhari bug'doy navi aynan ushbu hudud tuproq-iqlim sharoitlariga bardoshli ekanligini tajriba natijalaridan ko'rishimiz mumkin. Tajriba natijalariga asoslanib yakuniy hulosasi sifatida shuni aytishimiz mumkin, ushbu bo'g'doy navidan, uning urug'lariga bentonit kapsulalari yordamida ishlov berish va ildizdan tashqari mikro o'g'itli suspenziya bilan oziqlantirish ijobiy samara berishi bilan bir qatorda, gallachilikda yuqori iqtisodiy rentabellikga erishishni ta'minlaydi va sifatli hosil olish garovi hisoblanadi.

1. Dauletmuratov M.M. Atamuratov R.T. Orazmetova R.S. The effect of different treatments on its seeds and additional feeding in addition to the root in increasing the yield of spring wheat in the Aralsea region. Texas Journal of Agriculture and Biological Sciences ISSN NO:2771-8840 <https://zienjournals.com> March 2024 37-40

2. Boysunov N. B. et al. Diallel analysis for 1000-kernel weight in winter wheat //Фундаментальные и прикладные научные исследования: актуальные вопросы, достижения и инновации. – 2021. –С. 52-54.

3. Boysunov N. B. et al. Orolbo'yi hududiga mos sho 'rga bardoshli bahorgi bug'doy navlarni tanlash//Iqlimning davom etayotgan o'zgarishi sharoitida oziq-ovqat xavfsizligiga erishish uchun agrobiologik xilma-xillikni o'rganish, saqlash va barqaror foydalanish muammolari. – 2023. – С. 574-577.

4. Amanov A., Amanov O. Kuzgi boshqoqli don ekinlarini barg orqali oziqlantirish // O'zbekiston qishloq xo'jaligi. -Toshkent, 2016. - №5. -B. 35.

5. G'. G'aybullayev Sh. nurkabulov Kuzgi bug'doy urug'larining don sifatlariga makro va mikro o'g'itlar hamda o'stiruvchi stimulyatorlarga bog'liqligi

Academic Research in Educational Sciences Volume 3 | Issue 11 | 2022 ISSN: 2181-1385 Cite-Factor: 0,89 | SIS: 1,12 | ASI-Factor: 1,3 | SJIF: 5,7 | UIF: 6,1